«ONAMNING KASHTALARI»
ONA XOTIRASIGA BAG‘ISHLANGAN BADIIY-QISSADAN

Shaxzoda Saidova Fayzillayevna
Surxondaryo viloyati Boysun tumani "KELAJAK" markazi Ustozi
"Shirinabonu"nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Mudirasi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24354226

Ba'zi insonlar hayotimizdan ketadi, ammo ularning mehri, ovozi, hidlari va qo‘l izlari qalbimizda bir umr qoladi.

Men uchun shunday inson — onam.

Bugun uyimizga kirsam, hamma narsa o‘z joyida. Devorlar o‘sha, derazalar o‘sha, hovlimiz ham avvalgidek. Ammo nimadir yetishmaydi: uyimizning fayzi, ko‘nglimizning quyoshi bo‘lgan onam yo‘q...

Onamdan menga bir nechta ro‘mol, bir dasta rangli iplar, igna va tugallanmagan kashtalar qoldi.

O‘sha ro‘mollarni sandiqdan olib, yuzimga bosaman. Go‘yo onamning hidlari hali ham unda saqlanib qolgandek. Ko‘zlarimga yosh keladi.

Eh, onajonim... Qaniydi, bir marta bo‘lsa ham o‘sha ro‘molni boshingizga o‘rab, oldimga chiqib kelsangiz...

Onam kashta tikishni juda yaxshi ko‘rardilar.

Ularning qo‘llari gul tiksa, oddiy mato ham san'at asariga aylanardi. Har bir gulda bir orzu, har bir naqshda bir tilak bor edi.

Men bolaligimda yonlarida o‘tirardim.

Charchamaysizmi? — deb so‘rardim.

Onam kulib:

— Bolam, qo‘limdan chiqqan har bir narsa sizlarga esdalik bo‘lib qolsin, — derdilar.

O‘shanda bilmagan ekanman: onamning har bir tikkan choki bizga qoldirilgan mehrli xotira ekan.

Bugun o‘sha kashtalarni ko‘rsam, onamning egilib ishlayotgan qo‘llari ko‘z oldimga keladi.

Bir chetda ignalari turibdi. Ip g‘altaklari hamon o‘sha-o‘sha.

Faqat ularni qo‘liga olib, kashta tikadigan inson yo‘q...

Onasiz qolish — bu shunchaki bir insonni yo‘qotish emas ekan.

Bu — har kuni kimnidir sog‘inish, har bir quvonchda kimnidir izlash, har bir qiyinchilikda kimningdir bag‘riga talpinish ekan.

Ba'zan juda oddiy narsalarga ham ko‘nglim buziladi.

Biror yaxshi xabar eshitsam, birinchi bo‘lib onamga aytgim keladi.

Biror narsadan qiynalsam, onamning oldilariga yugurgim keladi.

Ko‘chada bir ayol farzandini erkalatib chaqirsa, beixtiyor ortimga qarayman.

Go‘yo onam ham meni chaqirayotgandek...

Ammo keyin yuragim haqiqatni eslaydi.

Onajon, sizni juda sog‘indim. Siz bilan aytolmay qolgan ga[…], so‘ray olmagan savollarim, bag‘ringizga bosilmay qolgan […]

Bir kuni onamning eski buyumlarini tartibga solayotganimda, tugallanmagan kashtaga ko‘zim tushdi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Oppoq matoning bir burchagida chiroyli gul boshlangan, ammo uning oxirgi yaproqlari tikilmay qolgan edi.

Uzoq vaqt qo‘limda ushlab turdim.

O‘yladim: balki onam ertaga davom ettiraman, deb qo‘ygandirlar. Balki yana bir kuni shu joyiga qaytmoqchi bo‘lgandirlar...

Ammo o‘sha ertaga kelmadi.

O‘sha kashta tugallanmay qoldi.

Men uchun esa u endi oddiy kashta emas. U onamning qo‘llari tekkan, mehrlari singgan, umrlaridan bir parcha bo‘lib qolgan bebaho yodgorlik.

Men onamning kashtalarini hech qachon tashlamayman. Chunki ular bor ekan, onamning mehrlari ham go‘yo yonimda yashayotgandek.

Onajon, bilasizmi, siz ketganingizdan beri uyimizning bir burchagi huvillab qoldi.

Siz o‘tiradigan joyga qarayman. Go‘yo hozir kelib o‘tiradigandek tuyulasiz.

Ro‘molingizni ko‘rsam, yuragim titraydi.

Ba’zan uni bag‘rimga bosib, uzoq yig‘layman. Hech kimga bildirmay yig‘layman. Chunki onasini sog‘ingan yurakning dardini har kim ham tushunavermaydi.

Har bir qadamimda duo qilganingiz uchun rahmat.

O‘zingizdan kechib, bizga yaxshilik tilaganingiz uchun rahmat.

Men ulg‘aydim, onajon. Ammo sizning oldingizda hamon kichkina bolangizman.

Qaniydi, yana bir bor:

— Bolam, ovqatlandingmi? — deb so‘rasangiz...

Qaniydi, yana bir bor qo‘llaringizni o‘psam...

Qaniydi, yana bir bor bag‘ringizga bosh qo‘ysam...

Ammo endi sizga faqat duo yubora olaman.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.





© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.